



Xujanova Shaxina Abdullayevna

Shaxrisabz Davlat Pedagogika Instituti

1-kurs Xorijiy til va adabiyoti
fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya

Bugungi kunda Yashil iqtisodiyot butun jahon buylab ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Mamlakatda ekologik xavf –xatarlarni kamaytirish borasida faol sayi harakatlar olib borilmoqda. Bu maqolada Yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim ahamiyatlari ko'rib chiqiladi. Bu sayi harakatlarning barqaror iqtisodiyotga va iqtisodiy taraqqiyot uchun qushadigan hissasi tahlil qilinib, O'zbekiston miqyosida amalga oshirilishi zarur bo'lgan bosqichlar izohlanadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya, taraqqiyotlar strategiyasi, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, moliyaviy imkoniyatlar

ПЕРЕХОД К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ — ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация

В настоящее время зелёная экономика становится одним из важнейших факторов обеспечения экологической устойчивости во всём мире. В стране ведутся активные усилия по снижению экологических рисков. В данной статье рассматривается значимость перехода к зелёной





экономике. Анализируется вклад этих усилий в формирование устойчивой экономики и экономическое развитие, а также объясняются этапы, которые необходимо реализовать в масштабах Узбекистана.

Ключевые слова: Зелёная экономика, экологические реформы, возобновляемая энергия, стратегия развития, экологическая экономика, охрана окружающей среды, финансовые возможности.

TRANSITION TO A GREEN ECONOMY AS A REQUIREMENT OF THE PRESENT TIME

Annotation

Today, the green economy is becoming one of the most important factors in ensuring environmental sustainability worldwide. Active efforts are being made in the country to reduce environmental risks. This article examines the significance of transitioning to a green economy. It analyzes the contribution of these efforts to sustainable economic development and explains the stages that need to be implemented within Uzbekistan.

Keywords: Green economy, environmental reforms, renewable energy, development strategy, ecological economics, environmental protection, financial opportunities.

KIRISH

O'zbekistonda Taraqqiyotlar strategiyasining 24- maqsadi doirasida iqtisodiyotni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash va "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish ko'zda tutilgan globallashuv jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlarning texnologik bazasining sifat jihatidan yangilanishini, ishlab chiqarish samaradorligi va



raqobatbardoshlik darajasini oshirish bilan birga hayot sifatini va yashash muhitini yaxshilashni ta'minlaydigan yangi texnologik tuzilmaga modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi tabiiy resurslarni samarali boshqarish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratishga va resurslarni adolatli taqsimlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi[1]. Ushbu maqolada O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga yondashuvi va global ijtimoiy barqarorlik va atrof-muhitni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni samarali joriy etish bo'yicha muhim choralar ko'rilayotganligi va ularning amalga oshirilishi zarurati haqida samarali usullar haqida bayon qilinadi[2].

ADABIYOTLAR SHARHI.

Djurayeva Nilufar "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Ta'lim tizimidagi islohotlar" nomli oily ta'lim mutaxassislarining professor o'qituvchilari va magistratura mutaxassisliklari uchun darslik yozdi bu darslikning 171-178 sahifalarida Yashil iqtisodiyotning mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rni va bu borada qilinayotgan chora tadbirlar haqida yoritib bergan. Unga ko'ra Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot[3]. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi. Bu darslikda shuningdek O'zbekistonda olib borilayotgan Yashil iqtisodiyot borasidagi sayi harakatlar haqida ham ta'kidlangan. "O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 2



dekabrdagi “2030yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bòyicha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PP-436-son qarori qabul qilindi. Hujjat bilan 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi tasdiqlandi”[4].

Bundan tashqari bir necha maqolalar orqali bugungi kundagi Yashil iqtisodiyotning vatanimiz rivojidagi ahamiyatini to‘liq tushinib yetish mumkin shunday maqolalar sirasiga B. Shoyqulovning "O'zbekistonning 'Yashil Iqtisodiy Strategiyasi' va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari" to'g'risidagi maqolani kiritish mumkin. Ushbu maqolada u "yashil" iqtisodiyotga o'tish, "yashil makon" dasturlarini amalga oshirish, "Yashil iqtisodiyot strategiyasi"ni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari, barqaror rivojlanish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini keltirgan[5].Erkinova Xosiyat “O‘zbekiston Yashil iqtisodiyotga O‘tish strategiyasi maqolasida O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish, qayta tiklanadigan energiya tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar va amaliyotlarning kuchaytirilganligi, shu bilan birga, ekologik islohotlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga katta ta’sir ko‘rsatayotganligi haqida fikrlar bildirgan[6]. Muxammadali Vaxobovning "O'zbekistonda yashil iqtisodiyot o'rnini va uni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy maqolasida O'zbekistonda yashil energetika va uning amalga oshirilish yunalishlari borasida ta’kidlab o‘tilgan.[7]

METADOLOGIYA.

O‘zbekistonda Yashil Iqtisodiyot nima uchun muhimligini boshqa davrlar bilan taqqoslash maqsadida qiyosiy tahlil metodi qo‘llanildi. Bu uslub doirasida nafaqat mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, balki bir necha xorij mamlakatlarining yashil iqtisodiyot uchun qo‘llayotgan ishlari tahlil qilindi. Unga ko‘ra “yashil iqtisodiyot” iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga



hayot sifatini va turmush sharoitini yaxshilashga koʻmaklashadigan xoʻjalik faoliyatining turlari va natijalarini oʻz ichiga oladi. Jahon iqtisodiyotidagi “yashil” sektorning miqyosiga nazar tashlaydigan boʻlsak,

- AQShda “yashil iqtisodiyot” 600 milliard dollardan ortiq mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi (YaIMning 4,2%), bandlik 3 million kishiga baholanadi;

- Yaponiyada - YaIMning mos ravishda 3,4 foizi va 1,5 mln.;

- Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jami YaIMning 2,5 foizi va 3,4 milliondan ortiq kishi;

- biroq ayrim mamlakatlarda bu koʻrsatkichlar yuqoriroq: Germaniyada esa YaIMning 4,8%i, bundan tashqari, Germaniya ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni eksport qilishda (xususan, iqlimni tejovchi uskunalardagi jahon savdosining 12% dan ortigʻi) dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri;

- yalpi ichki mahsulotda “yashil” sektor ulushi boʻyicha dunyoda yetakchi boʻlgan Buyuk Britaniyada bu koʻrsatkich 240 milliard dollarni (yoki YaIMning 8,8 foizini) tashkil etadi, uning eksportdagi ulushi 5 foizni va umumiy ish bilan taʼminlanish darajasi 3 foizni tashkil etgan.

Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinganda, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilgʻor davlatlardan biridir. Germaniya chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish boʻyicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Tahlil natijalari.

Oʻzbekiston “yashil iqtisodiyot”ga oʻtishi zarurligiga yuqoridagi tahlillarga koʻra bir qator omillar sabab boʻlmoqda, jumladan:

- ✓ xalq xoʻjaligida isteʼmol qilinadigan energiyaning katta qismi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarilishi;

- ✓ ushbu resurslarning cheklangan taʼminoti;

- ✓ sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi;



✓ suv tanqisligi;

✓ Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolar kuchaymoqda.

Mustaqillik va islohotlarning o'tgan o'ttiz uch yili ichida O'zbekiston Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmonchilik choralari tufayli iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishdi. Atrof-muhit bo'yicha amaldagi milliy rejalar hamda maqsadlar past uglerodli va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning markaziy elementlari bo'lib qolmoqda. Ammo sug'orish va ichimlik suvi tanqisligi, ishonchli elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon mavjud, bunga so'nggi paytlarda yuz bergan keng ko'lamli elektr uzilishlari, misli ko'rilmagan qum va chang bo'ronlari dalil bo'la oladi. Odamlar, jamoalar, atrof-muhit va infratuzilmaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ushbu muammolar O'zbekistonning "yashil" kelajagini ta'minlash uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini eslatib turadi[8].

Xulosa.

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonda ekologiya va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni barqaror rivojlanish va ekologiyani muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya va ekologik texnologiyalar bo'yicha ijobiy qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, texnik, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi va xususiy sektor faolligining pastligi jarayonni sekinlashtirmoqda. Shuning uchun mamlakatga investitsiya jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologiyani, balki jamiyat farovonligini ham yaxshilab, kelajak rivoji uchun yangi imkoniyatlar ochadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. Prezident qarori PQ-4477-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Prezident farmoni PF-158-son
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. (2023). "Yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi strategik maqsadlar. <https://parliament.gov.uz/articles/1263>
4. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida (№ PP-436, 02.12.2022)
5. B. B. Shoyqulov "O'zbekistonning 'Yashil Iqtisodiy Strategiyasi' nomli ilmiy maqolasi
6. Erkinova Madina "O'zbekistonning Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mavzusidagi ilmiy maqolasi
7. Muxammadali Vaxobovning "O'zbekistonda yashil iqtisodiyot o'rni va uni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy maqolasi
8. Djurayeva Nilufar “Yangi O'zbekiston taraqqiyotlar strategiyasida Ta'lim tizimidagi islohotlar” Oliy ta'lim muassasalarining professor o'qituvchilari va magistratura uchun darslik Toshkent 2024, 170-183 sahifalar.

